



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2019-yil. 2-son.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я** **ПРЕПОДАВАНИЕ**  
**Я** **ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**  
**L** **TEACHING** **LANGUAGE AND LITERATURE**  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

## Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

## Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Kadirbay BEKTURDIYEV  
Nargiza RAHMONQULOVA  
Mamatqul JO'RAYEV  
Maqsudjon YO'LDOSHEV  
Sirojiddin SAYYID  
Jabbor ESHONQULOV  
Abdurahim NOSIROV  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)  
Shahnoza JO'RAYEVA

## Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV  
Ergesh ABDUVALITOV  
Manzura DADAXO'JAYEVA  
Ehson TURDIQULOV  
Valijon QODIROV

## Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

## Nashr uchun mas'ul:

Nigora O'ROLOVA  
Yuliya MUSURMANOVA

## Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 04.03.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>8</sub>. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi, 10, 11 kegl. «SANO-STANDART» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroq ko'chasi, 100. 65-son buyurtma. Adadi 6300 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

## MUNDARIJA

### AZIZ VA YAGONAMSAN, JONAJON O'ZBEKISTONIM!

Vazira Ibrohimova. Adabiyot – yolg'iz xaloskor .....	3
Nizomiddin Mahmudov. O'xshatishlarda milliy mentallik jozibasi .....	5

### DOLZARB MAVZU

Valijon Qodirov. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar xususida mulohazalar .....	8
Gulshan Asilova. Davlat tili darslarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish .....	10
Xadicha Muxitdinova. Maktablar va xizmat yozishmalari .....	12

### DARS – MUQADDAS

Oygul Muzaffarova. O'rin-joy otlari .....	14
Nigina Qodirova. Oz-oz o'rganib dono bo'lar .....	15
Adiba Bekchanova. Yurakdagi bitmas jarohat yoxud Vatanning koriga yaragin, bolam! .....	17

### ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

Nargiza Musulmanova. "Grammatik shakl va grammatik kategoriya" modulini o'qitishda tushunchalar tahlili metodidan foydalanish .....	21
---	----

### ADABIY TAQVIM

Umarali Normatov. Munaqqid jasorati .....	23
---	----

### TAHLIL

Umid Xo'jamqulov, Abdishukur Shofqorov. "Bor"ning inkori va "yo'q"ning tasdig'i haqida mulohazalar .....	25
Bahodir Karim. "Bobumoma"dan bir hikmat .....	26
Abdurashid To'ychiyev. Navoiy poetik sintaksisining ayrim xususiyatlari xususida .....	28
Isroil Sulaymonov. «Bobumoma»da g'oliblik va mag'lublik holati tasviri .....	31

### TADQIQOTLAR

Shohida Qodirova. Ko'chirma gap va uning kommunikativ-sintaktik xususiyati xususida .....	33
Xolida Dovurova. Jizzax viloyati hududidagi etnoyukonimlar va ularga xos shevalar .....	35
Dilrabo Baxronova. Turkiy va yevropa xalqlari totem va Geraldikasida milliylikning aks etishi .....	38
Zilolaxon Isaqova. Ingliz va o'zbek tillarida subyektiv bahoning ifodalanishi .....	41

### KICHIK TADQIQOT

Zebo Ahrorova. Alisher Navoiy ijodida ma'rifati ayollar madhi .....	43
Mahfuza Davronova. Iqbol Mirzo she'riyatida janrlar masalasi va uslub birligi .....	44
G'anisher Jo'rayev. Tarjimashunoslikning maxsus usullari xususida .....	46
Dilnoza Abduvaxobova. Emotsiyalarning xususiyatlari va tilda ifodalanishi .....	47
Muqaddas Qosimova. Graduonimiya nima? .....	48

### ПРИЛОЖЕНИЕ

#### ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ

Гульнора Мансурова, Барно Фармонова. Алишер Навои и его знаменитая «Пятерница» .....	1
--	---

#### МЕТОДИКА. ОПЫТ

Юлия Мусурманов, Н.Заболоцкий. «Не позволяй душе лениться...» .....	5
---	---

#### ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Елена Каминская. Планета детства Евгении Гапчинской .....	7
Саодат Исмаилова. Использование кейс-метода при обучении русскому языку как неродному .....	9

#### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Мадина Пирматова. Использование метода «Гекса» при анализе литературного произведения .....	11
---	----

#### МЫСЛИ В СЛУХ

Наргиза Худойбердиева. Книга – лучший друг .....	13
--	----

#### ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Мукаррама Бердиева. Выражение объектных значений в простом и сложном предложении .....	14
Азиза Бедилова. Синонимы, антонимы, омонимы, паронимы и фразеологизмы в русских пословицах .....	16

#### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Нилуфар Дилмуродова. Приемственность и творческие традиции .....	19
Агата Осипова. О разграничении образа рассказчика и повествователя в литературоведении .....	21

#### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Инна Старцева. Изучение вида глагола в учебном курсе «Русский язык как иностранный» .....	22
Насиба Хайдарова. Писатель-путешественник Василий Янчевецкий .....	25

#### ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Шахло Ботирова. Символически-образная интерпретация и психологизм .....	28
---	----

#### ВНЕКЛАССНАЯ РАБОТА

Эльвина Алиева. По страницам творчества М.Цветаевой .....	29
---	----

**Nargiza MUSULMANOVA,**  
Qarshi davlat universiteti O'zbek tilshunosligi  
kafedrasida katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari nomzodi

## "GRAMMATIK SHAKL VA GRAMMATIK KATEGORIYA" MODULINI O'QITISHDA TUSHUNCHALAR TAHLILI METODIDAN FOYDALANISH

Filologik ta'limda o'quvchi va talabalarga yangi pedagogik texnologiyalar asosida berilgan bilimlar ularning bilish salohiyati bilan birga fikrlash doirasini kengaytirish, nutqining ravonligini oshirish, ijodiy va ilmiy mushohada yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi. Jumladan, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalariga tilshunoslik fanlarini o'tishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish fanlarni mukammal o'rganishga zamin yaratadi.

"Hozirgi o'zbek tili" fanining "Morfemika-morfologiya" bo'limini o'qitishda xususiy pedagogik texnologiyalarning katta qismidan foydalanish mumkin. Ilmiylik, izchillik, qulaylik, nazariy va amaliy bog'liqlik, faollik va mustaqillik, ko'rgazmalilik, tarbiyalovchi va takomillashtiruvchi xarakter, kasbiy yo'naltirilganlik kabi didaktik tamoyillar tizimiga asoslanib o'tiladigan har bir mashg'ulot maqsadga samarali erishishda muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda quyida o'z darslarimizda qo'llagan metodlar va ularning samarasi haqida fikrlashmoqchimiz.

"Tushunchalar tahlili" metodi modul yoki barcha mavzularni yodga olish, o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish, o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talabalarni baholay olishga yo'naltirilgan. U talabalarni tushuncha va atamalarni izohlash, o'tilgan materiallarni eslab qolish, faollikka o'rgatadi. Ushbu metodni takrorlash darslarida, talaba bilimni nazorat qilishning frontal shakli sifatida, yangi bobni boshlashdan oldin talaba biladigan va bilmaydigan tushunchalarni aniqlab olishda qo'llash mumkin.

Bunday mashg'ulotlarda foydalanish mumkin bo'lgan vositalar: tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam, ruchka, slayd.

**Izoh:** reja bo'yicha, mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, guruh talabalari soniga qarab, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bo'lsa, guruhlar soniga ko'ra) tarqatma material tayyorlanadi.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- talabalar guruhlariga ajratiladi;
- mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- talabalar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi

mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;

- tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida izoh yozadilar;

- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiradi;

- har bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydi, kerakli tushunchaga ega bo'ladi, o'z-o'zini tekshiradi, baholaydi, shuningdek, bilimlarini mustahkamlaydi.

**Izoh:** "Tushunchalar tahlili" usulini "Chaynovord", "Uzluksiz zanjir", "Klaster", "Blits zanjir" shaklida ham tashkil qilish mumkin.

Mashg'ulotda quyida berilgan tarqatma materiallardan foydalanish mumkin. Talabalarga ushbu xarita beriladi. Talabalar 10 daqiqa ichida tushunchalarini yozadilar.

Tushunchalar	Mazmuni (talabalar tomonidan bajariladi)
Grammatik ma'no	Til (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) birliklarining bevosita nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstrakt ma'nosi
Grammatik shakl	Grammatik ma'no ifodalovchi morfologik ko'rsatkich
Kategoriya	Tilshunoslikka falsafadan kirib kelgan termin, falsafada «obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi umumiy tushuncha»
Grammatika	Ongda nutqiy qo'llanishga shay turgan leksemalarni grammatik vositalar bilan shakllantirib, so'zga aylantiradi, bu so'zlarni o'zaro biriktiradi va fikr almashtirish vositalari sifatidagi vazifasini reallashtiradi

Grammatik kategoriya	Tilshunoslikda <i>grammatik kategoriya</i> termini ostida, asosan, morfologik kategoriyalar tan olinadi
Murakkab kategoriya	Ularda boshqa kategoriyalarga mansub ma'nolar ham mujassamlashgan bo'ladi: egalik, o'zgalovchi, harakat tarzi, kesimlik
Leksik-morfologik kategoriya	Ayrim guruhlar, ya'ni turkumlarga xos bo'lib, ular sirasiga nisbat, harakat tarzi, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja kategoriyalari kiradi
Kategorial ma'no	Grammatik shaklning substansial mohiyati bo'lib, yondosh ma'no umumiy grammatik ma'nosida mavjud va kategorial ma'no bilan dialektik bog'langan lisoniy hodisa
Yondosh ma'no	Aslan qaysi sathga tegishligiga ko'ra leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy va qarishiq turi farqlanadi, bu esa kategoriyaning leksik-grammatik, sintaktik, uslubiy-grammatik kabi ko'rinishlari bilan bog'liq
Hamroh ma'no	Kategorial ma'no bilan dialektik bog'liq bo'lmagan matn va nutq sharoitiga bog'liq ravishda yuzaga chiqadigan ma'no
Funksional-morfologik kategoriya	Kelishik, egalik, kesimlik


Ma'ruza mashg'ulotida yana quyidagi metodlardan ham foydalanish mumkin:

### 1-ilova

Venn diagrammasi

**Topshiriq.** Leksik-morfologik kategoriya va funksional-morfologik kategoriyalarni taqqoslang va Venn diagrammasida ifodalang.

Leksik-morfologik kategoriya	Leksik-morfologik va funksional-morfologik kategoriyalarni o'zaro qiyoslang	Funksional-morfologik kategoriya
Nisbat, harakat tarzi, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja kategoriyalari	Ularning har ikkisi ham morfologik kategoriya bo'lib, ma'lum bir so'z turkumlari doirasiga taalluqli	Kelishik, egalik, kesimlik funksional-morfologik kategoriyalar



### 2-ilova

"Tushunchalar asosida matn tuzish" metodi


**Topshiriq:** berilgan so'zlar asosida 5-6 gapdan iborat matn tuzing. Tuzilgan matnlar asosida grammatik kategoriyalarni tasniflang:

- 1-sentabr, O'zbekiston, sho'rolar tuzumi, majlis, deklaratsiya. (Mustaqillik)
- Yomg'ir, sovuq, o'tin, quyosh, gul, Vatan. (Bahor)
- "Munojot", Shahrisabz, Oqsaroy, Amir Temur, musiqa. (I maqom festivali)

### 3-ilova

Qiyoslash asosida xulosa chiqarish

**Topshiriq:** grammatik ma'no tarkibini o'zaro qiyoslang.



**To'g'ri javob:** kategorial va yondosh ma'no dialektik bog'langan, hamroh ma'no esa nisbiy.

Bundan tashqari bir necha xil shakl-ko'rinish, mazmun-mohiyatga ega KLAUSTERlar, Intellekt xarita, tushunchalar tahlili asosidagi krossvordlardan ham foydalanish mumkin. Bularning barchasini o'qituvchi yoki talabalarning o'zlari ham tayyorlab kelishlari mumkin. Biz ko'p hollarda talabaning mustaqil ishida shunday topshiriqlar beramiz va talabalar hech bo'lmaganda shulardan bittasini bo'lsa-da tayyorlashga harakat qiladi. Tushunchalar tahlili metodi har bir modul yoki mavzuda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metod bo'lib, u, o'z navbatida, dars salohiyati va samaradorligini oshiradi.



# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan  
chiqa boshlagan

2019-yil. 2-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz



**Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi qayta ta'mirlanib,  
yangidan-yangi noyob eksponatlar bilan boyitilmoqda!**

O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli mazkur ilmiy muassasa 1940-yili Alisher Navoiy tavalludining 550-yilligi munosabati bilan Respublika ko'rgazmasi tariqasida tashkil topgan.

Hozirda Xalqaro muzeylar kengashi a'zosi hisoblanuvchi usbu dargohda Markaziy Osiyo madaniyati va san'atining 3000 dan ortiq noyob eksponat, ashyo va hujjatlari saqlanayotgani barobarida ular yuzasidan ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Ayniqsa, XX asrda suronli qatag'on yillarini boshidan o'tkazgan o'zbek adabiyoti namoyandalarning benazir asarlari hamda haligacha to'liq o'rganilmagan shaxsiy arxivlari jahon ilm-fani vakillarini ham mazkur muzeyga ohanraboddek chorlab turadi.

Ushbu sonda



Dolzarb  
mavzu

Sodda yig'iq va sodda  
yoyiq gaplar xususida  
mulohazalar

8- bet



Dars -  
muqaddas

O'rin-joy otlari

14- bet



Adabiy  
taqvim

Munaqqid jasorati

23- bet



Tadqiqotlar

Turkiy va yevropa xalqlari  
totem va geraldikasida  
milliylikning aks etishi

38- bet